

QADIMGI MESOPATAMIYADA DINIY E'TIQODLARNING SHAKLLANISHI

BOBOJONOV BEHRUZ

SHDPI TARIX KAFEDRASI O'QITUVCHISI

OTAMURODOV DONIYORBEK

SHDPI 2-KURS TALABASI

KUCHIMBOYEVA MARJONA

SHDPI 1-KURS TALABASI

Annotatsiya: Ushbu maqolada qadimgi Mesopatamiya xalqlarining diniy e'tiqodlar asosida ko'plab xudolar, ruhlar va tabiat kuchlariga sig'inganligi haqida so'z boradi. Ba'zi manbalarda keltirilishicha, Mesopotamiyaliklar ayniqsa, qudratli va ko'plab fazilatlarga ega bo'lgan xudolarga e'tiqod qilishgan, masalan Anu, Enlil, Ishtar va marduk kabi xudolar mavjudligi haqida ma'lumotlar uchraydi. Diniy marosimlar, qurbonliklar va ibodatlar orqali ular ilohiy kuchlarga yaqinlashishga intilishgan.

Kalit so'zlar: Anu, Enlil, Ishtar, marduk, Mesopatamiya, Urmiya, Akkad, Shummer, Diyali, Kassit.

Kirish: Qadimgi Mesopotamiya diniy e'tiqodlari, eramizdan avvalgi uchinchi mingyillikda rivojlanib, har bir shahar-davlat o'zining ma'lum diniy tizimini yaratgan. Mesopotamiya dini ko'plab xudolarga, ruhlar va tabiiy kuchlarga ibodat qilishni o'z ichiga olgan va Mesopotamiyada odamlar qadimdan o'rnasha boshlagan, neolit davrida bu jarayon tezlashgan, dastlab iqlimi qulay shimol o'zlashtirilgan. Qadimgi Xassun, Xalaf madaniyatining etnik kelib chiqishi noma'lum. Janubiy Mesopotamiya ilk manzilgohlari keyinroq eramizdan avvalgi IV ming yillikda va eramizdan avvalgi IV ming yillikni II yarmida El-Ubayd madaniyati bilan belgilanadi. Ba'zi tadqiqotchilar bu madaniyatni shumerlarga tegishli deb, boshqalari protoshumerlarga bog'laydilar. Shumerlarning janubiy Mesopotamiyada paydo bo'lishi taxminan er.av. IV ming yilliklar bilan belgilanadi. Shumer tilini qaysi til oilasiga mansubligi ham noma'lum. Shumerlar mahalliy aholi bilan aloqa o'matib, ulardan bir qancha xo'jalik yutuqlari, diniy e'tiqodlar va toponomik nomlarni o'zlashtirib olganlar. Antik mualliflar Mesopotamiya tabiati, iqlimi va aholisining urf-odatlarini, diniy e'tiqodlarini, yutuqlari va tarixiy afsonalari to'g'risida qimmatli ma'lumotlar yozuvlar qoldirdilar. Mesopotamiya diniy tizimi juda murakkab bo'lib, vaqt o'tishi bilan turli shahar davlatlarining o'ziga xos xudo va diniy an'analari shakllandi. Misol uchun, Shumer, Akkad, Babil va Assur o'rtasida diniy tafovutlar bo'lsa-da, ular bir-biridan o'zaro ta'sirlanib, diniy tushunchalar birlashgan.[1]

Tahlil va natijalar

Ma'lumki, qadimgi dunyo mualliflari Qadimgi Sharq xalqlari, xususan Qadimgi Mesopotamiya haqida ozmi-ko'pmi ma'lumot yozib qoldirganlar. Ular Mesopotamiyaning tabiiy sharoiti, iqlimining o'ziga xos xususiyatlarini, aholining urf-odat, rasm-rusumlari, diniy e'tiqodlari, madaniyat sohasida erishgan yutuqlari, uning tarixi haqidagi xotiralami tasvirlaganlar. Ma'lumki, din ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, ma'naviy madaniyatning tarkibiy qismini tashkil qiladi. Mesopotamiya xalqlari boshqa qadimiy sharq xalqlari kabi ko'p xudolikka e'tiqod qilganlar. Mesopotamiya xalqlarining g'oyaviy hayotida din juda muhim o'rin tutgan. M.av. IV—III mingyillik chegarasida Shumerda diniy e'tiqod majmuasi ishlab chiqilgan edi. Shumerdagi har bir shahar o'z homiy-xudosiga ega edi. Shu bilan birga shunday xudolar bor ediki, hamisha shumerliklar unga e'tiqod qilar edilar. Shunday xudolardan biri osmon xudosi Anu, yer xudosi Enlil ediki, akkadiklar uni Bel deb ataganlar. Suv xudosi Enki yoki Ea shunday xudolardan biri edi. Mesopotamiyaliklar bu xudolarga butun vujudi bilan e'tiqod qilganlar. Mesopotamiyada har bir xudoning o'z vazifasi boigan. Enlil Nippur shahrining bosh xudolaridan biri boigan. Nippur taqdir xudosi bo'lib, u shaharlar bunyodkori, qo'l chopqisi va omoch ixtirochisi bo'lgan. Quyosh xudosi Utu (akkad mifologiyasida Shamash deb atalgan), Nainnar esa oy xudosi boigan (akkad tilida Sin nomi bilan mashhur boigan). U o'zini Enlilning o'g'li deb hisoblagan. Sevgi va hosildorlik xudosi Ianna bo'lib,

bobilliklar va ossurliklar uni Ishtar deb nomlaganlar. Dumuzi o'lmas xudo hisoblangan. U o'simliklarni oldiruvchi va tiriltiruvchi xudo sifatida gavdalanadi. Nergal urush, kasallik va o'lim xudosi hisoblanib. Mars sayyorasiga qiyos qilinadi. Oliy xudo Marduk bobilliklarning homiysi bo'lgan, u Yupiterga qiyoslangan. Mardukning o'g'li Nabu donishmandlik, yozuv, hisob-kitob, o'lchov xudosi bo'lib, Merkuriy sayyorasiga qiyos qilingan. Ossuriyaning oliy xudosi Ashshur bo'lib, u dastlab qabila xudosi hisoblangan. Bobil podsholigi kuchayishi munosabati bilan Marduk bobilliklar homiysiga aylanadi. Ibtidoiy okean ma'budasi Tiamat Bobil rivoyatida yovuz va yirtqich bahaybat dev-maxluqdek qilib tasvirlangan. Tiamat o'z zaminida yuzaga kelgan barcha xudolar va ma'budalarni yo'q qilishga urinadi. Xudo Marduk ayniqsa jasur va dovyurak bo'lgan.[2] Qadimgi Shumerda shahar-davlatlarning hokimlari "ensi" ibodatxona koinlaridan bo'lgan. Ibodatxonalar, shumerliklar ilohlarining mulki hisoblangan. Faqatgina koinlar unga tegishli yerlarni idora qilganlar. Ayrim yerlari ijaraga berilgan bo'lib, qolgan qaram kishilarga, ibodatxonadagi xizmatchilar va bu yerga tegishli savdogar hunarmandlarga foydalanishi uchun bo'lib berilgan. Ibodatxonalar o'z mulklarini himoya qilish niyatida harbiy bo'linmalar ham tuzganlar. Bunday yerlardan tushadigan yirik mablag'lar, diniy marosimlar va bayramlarni tashkil qilishga boshqa Shumer shahar-davlatlari bilan mahsulot ayirboshlashga yo'naltirilgan. Hosilning ma'lum bir qismi zahira qilib olib qo'yilgan. Ibodatxona yerlaridan tushadigan daromad doimiy hisoblab borilgan. Yuqorida ta'kidlanganidek, shahar ustidan nazorat "En" (janob) oliy koin tomonidan amalga oshirilgan. Uning hokimiyati oqsoqollar kengashi yoki xalq yig'ini bilan cheklangan. Ayrim hollarda shahar-davlatning qo'shinga ham boshchilik qilgan. Shahar "Eni" ning asosiy vakolati koinlik, ibodatxona yerlari va ma'muriyatni idora qilish, ibodatxona va shaharda yirik qurilishlar tashkil etishdan iborat bo'lgan. Shu bilan bir qatorda qishloq xo'jaligi uchun irrigatsiya tizimini bunyod qilish va shahar iqtisodiyotini tartibga solib boshqargan edi. So'ngra mil avv. III ming yillik o'rtalarida "En" unvoni o'miga "Ensi" ("kolun-quruvchi" shahar boshqaruvchisi) paydo bo'ladi. Shahar-davlat "ensi"si jamoa va ibodatxona mulklarini boshqargan. soliqlar yig'imini nazorat qilgan. Ayrim hollarda ibodatxonalarga tegishli askarlarga boshchilik qilgan.[3]

Mil.av. VI ming yillik o'rtalariga kelib, Mesopotamiyada qadimiy Tel-Xassuna madaniyati taraqqiy etadi. Bu yerdan o'roqlar, tosh boltalar, tosh tegirmonlar, keramika qoldiqlari va xonakilashtirilgan hayvonlar suyaklari topib o'rganilgan. Shu bilan birga sig'inish tumori hisoblangan ayollar haykalchalari arxeologlar tomonidan topilgan. Qabrlarda mayit oldiga sopol idishlarda ovqat qo'yib datn etish odatini mavjudligi, qadimda Tel-Xassuna aholisi orasida diniy tasavvurlar bo'lganligidan dalolat beradi.[4]

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Qadimgi Mesopotamiya diniy etiqodlari insoniyatning dastlabki va murakkab diniy tizimlaridan biri bo'lib, u politeizm, xudolar bilan o'zaro aloqalar, diniy marosimlar va axloqiy qadriyatlarni o'z ichiga olgan. Shaharlar o'z xudolarini ulug'lab, ibodat va qurbonliklar orqali ularga minnatdorchilik bildirgan. Xudolar insoniyatning taqdiri va tabiat hodisalarini nazorat qilgan, shuningdek, adolat va tartibni saqlashda muhim rol o'ynagan. Bu diniy etiqodlar va marosimlar nafaqat Mesopotamiya jamiyatini shakllantirgan, balki keyingi davrlar va madaniyatlar uchun ham katta ta'sir ko'rsatgan. Shunday qilib, Mesopotamiya diniy etiqodlari insoniyat tarixining bir qismi sifatida o'zining madaniy va diniy merosini qoldirgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rustam Rajabov „Qadimgi dunyo tarixi” Toshkent-2009
2. Abdujabbor Kabirov „Qadimgi Sharq tarixi” Toshkent-2016
3. A.G.Xolliyev. „Jaxon tarixi” O'quv qo'llanma „Navruz” nashriyoti 2018
4. Ravshan Rajabov „Jaxon tarixi” Toshkent-2015.
5. Begaliyev, N., Xumoyun, A., & Shahlo, S. (2024). RTA OSIYO GIDROTEXNIKA INSHOOTLAR TARIXI SARDOBA VA KORIZLAR MISOLIDA. *UNIVERSAL JOURNAL OF LAW, FINANCE AND APPLIED SCIENCES*, 2(9), 57-62.

6. Бегалиев, Н. (2024). БУХОРО–ҚАРИШИ САВДО ЙЎЛИДА ЖОЙЛАШГАН САРДОБАЛАР. *Science and innovation*, 3(Special Issue 3), 141-144.
7. Begaliyev, N. X. (2022). ETNOLOGIK TADQIQOTLARDA TERMINOLOGIYA MUAMMOSI. *Oriental Journal of Social Sciences*, 2(2), 69-72.
8. Otamurodov, D. (2024). IMOM BUXORIY - BUYUK MUHADDIS ALLOMA. *YANGI O'ZBEKISTONDA MILLIY TURIZM ISTIQBOLLARI*, 1(01).
9. Sobit, K. (2023). THE LAUNCH OF SPIRITUAL AND EDUCATIONAL EVENTS IN THE NEIGHBORHOODS OF SHAHRISABZ CITY. *JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH*, 6(1), 398-401.
10. Sunnatovich, Q. I., & Sobit, K. (2023). VARGANZA QISHLOG'IDAN TOPILGAN YODGORLIKLAR TARIXI (I-XV ASRLAR). *JOURNAL OF SCIENCE, RESEARCH AND TEACHING*, 2(9), 33-35.
11. Bobokulovna, Q. F. (2024). RESPUBLIKA "TADBIRKOR AYOL" UYUSHMASINING AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOLANTIRISHDAGI ROLI. *TADQIQOTLAR. UZ*, 35(1), 111-113.
12. Qanoatova, F. (2024). TURIZM RESURSLARINI SHAKLLANTIRISHDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINING AHAMIYATI. *YANGI O'ZBEKISTONDA MILLIY TURIZM ISTIQBOLLARI*, 1(01).
13. Tolibov, N. (2024). EKOTURIZM SOHASIDA TARIXIY JOYLAR VA OBIDALARNING AHAMIYATI. *YANGI O'ZBEKISTONDA MILLIY TURIZM ISTIQBOLLARI*, 1(01).
14. Nurillaevich O. B. et al. Factors Of The Formation Of Ecological Culture In The Education And Training System //Journal of Pharmaceutical Negative Results. – 2022. – C. 984-989.
15. Aralovna O. G. et al. Ecological globalization and its social place in the globalization system of processes //Journal of Survey in Fisheries Sciences. – 2023. – T. 10. – №. 1S. – C. 5000-5006.
16. Ayonovna A. S. The Need for the Formation of Environmental Education and Upbringing in Young People in the Conditions of Environmental Globalization //Global Scientific Review. – 2023. – T. 13. – C. 7-10.
17. Ayonovna A. S., Xudoyberdi o'g'li P. L. EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA EKOLOGIK OMIL TUSHUNCHASI ' //TADQIQOTLAR. UZ. – 2024. – T. 40. – №. 4. – C. 135-139.
18. Ayonovna A. S., Xudoyberdi o'g'li P. L. EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA EKOLOGIK OMIL TUSHUNCHASI ' //TADQIQOTLAR. UZ. – 2024. – T. 40. – №. 4. – C. 135-139.
19. Otamurodov, D. (2024). IMOM BUXORIY - BUYUK MUHADDIS ALLOMA. *YANGI O'ZBEKISTONDA MILLIY TURIZM ISTIQBOLLARI*, 1(01).
20. R. Rajabov. Qadimgi Sharq harbiy san'ati . Toshkent .2018.
21. Бобожонов, Бехруз Баходир ўғли. ШАҲРИСАБЗНИНГ ТАРИХИЙ БОЗОРЛАРИ ВА САВДО-ИҚТИСОДИЙ МУНОСАБАТЛАРИ. 1344-1351